

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**QALANDAROV AMINJON AMONDULLAYEVICH**

**KRAUDFANDINGNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Qalandarov Aminjon Amondullayevich**

Kraudfandingni fuqarolik-huquqiy tartibga solish ..... 3

**Kalandarov Aminjon Amondullayevich**

Civil legal regulation of crowdfunding..... 23

**Каландаров Аминжон Амондуллаевич**

Гражданско-правовое регулирование краудфандинга ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 46

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**QALANDAROV AMINJON AMONDULLAYEVICH**

**KRAUDFANDINGNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1436 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Xodjayev Baxshillo Kamolovich</b> yuridik fanlar doktori (DSc), professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Narziyev Otabek Sa’diyevich</b> yuridik fanlar doktori (DSc), professor <b>Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich</b> yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1345-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil 3-fevraldagi 65-son reyestr bayonnomasi).

**I.R. Rustambekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**D.Y. Xabibullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**S.S.Gulyamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda moliyalashtirishning noan'anaviy usullari, xususan, kraudfanding, venchur kapital va angel investorlar kabi innovatsion yondashuvlar tobora ommalashib bormoqda. Ushbu usullar nafaqat startaplar va ijodiy loyihalar uchun, balki ijtimoiy va ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda ham yangi imkoniyatlar yaratib, moliyaviy resurslarni bir joyga jamlashning samarali mexanizmlarini taqdim etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra Global kraudfanding bozori 2023-yilda 20,34 milliard AQSh dollariga baholangan. Ushbu bozor 2024-yildan 2032-yilgacha yillik o'rtacha 18,24% o'sish sur'atida rivojlanishi va 2024-yildagi 24,05 milliard AQSh dollaridan 2032-yilga kelib 91,88 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda<sup>1</sup>. Bu jarayon texnologiyalar rivoji va global miqyosda onlayn platformalarning kuchayishi bilan yangi bosqichga ko'tarilib, an'anaviy moliyaviy institutlardan tashqarida yangi moliyaviy ekotizim shakllanayotganidan dalolat beradi.

Jahonda kraudfandingni huquqiy tartibga solish yondashuvlari turli modellarga asoslanadi. Xayriyaga asoslangan kraudfandingda *laissez-faire* va *ad hoc* yondashuvlari qo'llanilsa, kraudininvesting uchun *liberal* va *standart* modellardan foydalaniladi. *Standart model* hukumatning bozorni boshqarishdagi faol ishtirokini ta'minlab, shaffoflikni, shu bilan birga, manfaatdor tomonlarning himoyasini yaratishga qaratilgan bo'lsa, *liberal model* bozorni xususiy tomonlarning o'zaro kelishuvlari asosida tartibga solib, mazkur jarayonda hukumat ishtirokini minimallashtiradi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribada kraudfanding munosabatlarini huquqiy tartibga solishda uchta asosiy rejim – *sui generis*, *dixotomiya* va *harmonizatsiyalangan rejimlardan* foydalaniladi. Mazkur rejimlar kraudfanding munosabatlarini huquqiy tartibga solishda “yagona” tartib, ya'ni maxsus huquqiy asoslarda boshqarish uchun mo'ljallangan tizimni yaratish, kichik va katta loyihalarga nisbatan alohida tartiblarni belgilash hamda transchegaraviy kraudfanding munosabatlarida yagona va standartlashtirilgan huquqiy tizimni joriy etish kabi choralarni nazarda tutadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonolari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan, umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish, Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Shu bilan birga, mazkur chora-tadbirlar kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, huquqiy me'yorlarning samarali ishlamasligi yoki moliyaviy tizimlarning yetarli darajada tartibga

---

<sup>1</sup> Global Crowdfunding Market Size, Share, Trends & Growth Forecast Report – Segmented By Product (Awards-Based Crowdfunding, Crowdfunding Auctions, and others), End-users (Cultural Industries, Technology, Product, Healthcare, Others) & Region - Industry Forecast From 2024 to 2032 // URL: <https://www.marketdataforecast.com/market-reports/crowdfunding-market>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

solinmaganligi bilan bog‘liq holatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu esa moliyalashtirishni huquqiy jihatdan o‘rganish, normativ bazani takomillashtirish va kichik hamda o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus mexanizmlarni joriy etish muhimligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning kraudfanding kabi zamonaviy usullarini joriy etishni huquqiy jihatdan o‘rganish, kraudfanding munosabatlarida ishtirokchilar huquqlarini himoya qilish hamda firibgarlik va moliyaviy xavflarni oldini olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 256-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi ““Temir daftar” orqali ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 313-son qarori va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Kraudfanding sohasini huquqiy tartibga solishning ayrim yo‘nalishlari fuqarolik huquqi sohasi mutaxassisleri tomonidan o‘rganilgan. Chunonchi, X.Rahmonqulov, S.S.Gulyamov, O.Oqyulov, Sh.Ruzinazarov, S.Gulyamov, N.Imomov, J.Babayev, A.Jumag‘ulov, A.Tojiboyev, S.Tojiboyev<sup>1</sup> kabi yurtimiz olimlari asarlarida mazkur masalaning turli jihatlari u yoki bu darajada o‘rganilgan. MDH mamlakatlarida V.Kuznetsov, D.Kotenko, N.Alekseyev, Y.Arkipov, S.Rukavishnikov kraudfanding va uning fuqarolik-huquqiy tabiati bo‘yicha, A.Klinov, S.Sayapinlar<sup>2</sup> kraudfandingning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijlik olimlardan kraudfandingni huquqiy tartibga solish Hu Ying, G.Samuel, F.Vargas, S.Bradford, C.Douglas, P.Belleflamme, A.Paulin, A.Schwartz, J.Thomas, G.Schoenfeld, A.Alon-Beck<sup>3</sup> kabi mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan.

---

<sup>1</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

<sup>2</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

<sup>3</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

Garchi ushbu olimlar tomonidan kraudfanding munosabatlari bilan bog'liq u yoki bu masalalar ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, bugungi kunda kraudfanding munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishga oid asosiy va dolzarb muammolar mamlakatimizda hali alohida tadqiqot obyekti sifatida kompleks ravishda o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tadbirkorlik subyektlari faoliyati erkinligining kafolatlari va huquqiy himoya tizimini yanada mustahkamlash masalalari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan kraudfandingni fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolarini tahlil qilish va shu asosida amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

kraudfanding faoliyatining umumiy huquqiy tavsifi va genezisini yoritib berish;

kraudfanding faoliyatining turlari, an'anaviy moliyalashtirish usullaridan farqi va uni huquqiy tartibga solish prinsiplarini tahlil qilish;

kraudfanding munosabatlarini huquqiy tartibga solish modellarini o'rganish;

kraudfanding subyektlari tizimida kraudfanding platformasi operatorining huquqiy maqomini yoritib berish;

kraudfanding platformasi operatorining davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va faoliyatini litsenziyalashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

kraudfanding faoliyatida moliyaviy xavfsizlik va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yoritib berish;

kraudfanding shartnomaviy munosabatlari taraflari hamda ularning huquq va majburiyatlarini tahlil qilish;

kraudfanding munosabatlarida taraflar (tashabbuskor, donor (investor) va kraudfanding platformasi operatori) o'rtasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqidagi qaysi shartnomaviy konstruksiyalarga asosan amalga oshirilishini tadqiq qilish;

kraudfanding platforma operatori faoliyatida taraflarning fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalarini yoritish;

kraudfanding faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llashni huquqiy tartibga solishning istiqbollari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** kraudfandingni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga doir huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** kraudfandingni fuqarolik-huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kichik va o'rta biznesni rivojlantirish yuzasidan moliyalashtirish vositalarini kengaytirishda an'anaviy kreditlash va investitsiya imkoniyatlarining cheklanganligi hamda innovatsion loyihalar va startaplarni joriy etishning huquqiy mexanizmlariga ehtiyoj mavjudligi sababli kraudfandingdan foydalanish zarurligi asoslantirib berilgan;

"Saxovat va ko'mak" jamg'armasini shakllantirishda jamiyatning keng qatlamlarini xayriya va ijtimoiy yordam jarayonlariga jalb etishda huquqiy shart-sharoitlar yaratish hamda uning uzluksizligi va keng qamrovliligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj sababli kraudfanding mexanizmlari orqali kelib tushgan mablag'lardan foydalanish zarurligi asoslantirib berilgan;

kraudfanding platformasi orqali xayriya qilish istagida bo'lgan shaxslar keyslarni ko'rib chiqib, to'liq yoki qisman homiylik qilishi mumkinligi, homiylik yordamlari to'g'ridan-to'g'ri natura shaklida muhtoj oilaning o'ziga yoki "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga maqsadli ravishda yo'naltirilishi, ko'rsatilgan yordamlar ijtimoiy xodim tomonidan kraudfanding platformasida aks ettirib borilishi va ochilgan keyslarni xayriya qiluvchilar geografik hududlar kesimida ko'rishi mumkinligi asoslantirib berilgan;

"Oroldagi bog'im" loyihasi doirasini kengaytirish maqsadida kraudfanding platformasi orqali aholining loyihaga hissa qo'shish imkoniyatini yaratish, har bir qo'shilgan hissa uchun qatnashchilarga sertifikat yoki ko'chatga ism berish kabi rag'batlantiruvchi dasturlar joriy etish, kraudfanding uchun aholi e'tiborini jalb qilish maqsadida keng ko'lamli targ'ibot va tashviqot ishlari olib borish, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, kraudfanding orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish va bu orqali loyihaga katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qilish lozimligi asoslantirib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

kraudfanding faoliyatida munosabatlarning mohiyati, unga nisbatan ilmiy qarashlar va yondashuvlar, shakllangan milliy va xorijiy sivilistik doktrina asosida kraudfanding, kraudfanding platformasi, kraudfanding platformasi operatori, donor, investor, tashabbuskor (loyiha muallifi) tushunchalariga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

kraudfanding platformasi operatori faoliyatini litsenziyalashning dunyo tajribasidagi doktrinalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va xorijiy davlatlarda qo'llanilishi tadqiq etilib, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish zarurligi asoslangan;

kraudfanding munosabatlarida taraflar o'rtasida tuziladigan shartnomalar, xususan, tashabbuskor va kraudfanding platformasi operatori o'rtasidagi shartnoma, investor va kraudfanding platformasi operatori o'rtasidagi shartnoma hamda tashabbuskor va investor o'rtasidagi kraudfanding platformasi orqali amalga oshiriladigan shartnomalarning fuqarolik huquqidagi vositachilik, xizmat ko'rsatish,

investitsiya va innovatsion shartnomalardan o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlari yoritib berilgan;

kraudfanding faoliyatida moliyaviy xavfsizlik va investorlar huquqlarini himoya qilish masalasini o'rganish davomida kraudfanding platformalarida investitsiya xavfini kamaytirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va firibgarliklarning oldini olish uchun samarali nazorat va monitoring tizimlari yaratish zarurligi aniqlangan. Investorlar manfaatlarini himoya qilishda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va tegishli qonunchilik bazasini yaratish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

tadbirkorlikda ijodiy g'oyalar va loyihalarni moliyalashtirishning samarali usuli sifatida kraudfandingdan foydalanish bo'yicha kreativ g'oyalarni moliyalashtirishni osonlashtirish, tadbirkorlik loyihalarini ommaga yanada jozibador qilish va investorlarni jalb qilish jarayonini takomillashtirish kabi bir qator takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, kraudfanding platformalari orqali tadbirkorlarning o'z loyihalarini bozor sinovidan o'tkazish va loyihalarni rivojlantirish uchun kichik investitsiyalar jalb qilish mexanizmlarini kengaytirish zarurligi yoritib berilgan;

respublikada kraudfanding sohasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish istiqbollari belgilash, shuningdek mazkur sohani huquq sohalari doirasida o'rganish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xorijiy va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan bo'lib, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, kraudfanding faoliyatiga oid qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda manba sifatida qo'llashga hamda biznes huquqi fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga hamda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda kraudfandingni qo'llashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

kichik va o'rta biznesni rivojlantirish yuzasidan moliyalashtirish vositalarini kengaytirishda an'anaviy kreditlash va investitsiya imkoniyatlarining cheklanganligi hamda innovatsion loyihalar va startaplarni joriy etishning huquqiy

mexanizmlariga ehtiyoj mavjudligi sababli kraudfandingdan foydalanish zarurligi bo'yicha takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-fevraldagi "Mahalliy va xorijiy investorlarga berilgan preferensiyalar va imtiyozlarning yagona reyestrini shakllantirish to'g'risida"gi 77-son qaroriga 3-ilova sifatida tasdiqlangan Mahalliy va xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 7-pozitsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 7-dekabrda 12-15-87-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda kraudfandingdan samarali foydalanishni huquqiy tartibga solishga xizmat qilgan;

"Saxovat va ko'mak" jamg'armasini shakllantirishda jamiyatning keng qatlamlarini xayriya va ijtimoiy yordam jarayonlariga jalb etishda huquqiy shart-sharoitlar yaratish hamda uning uzluksizligi va keng qamrovliligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj sababli kraudfanding mexanizmlari orqali kelib tushgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha berilgan takliflaridan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi "Temir daftar" orqali ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 313-son qaroriga 1-ilova sifatida tasdiqlangan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomning 5-bandi beshinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 7-dekabrda 12-15-87-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi kraudfanding mexanizmlari orqali jamg'arma mablag'larini shakllantirishni tartibga solish hamda ijtimoiy yordam uchun mablag'larni jamlash jarayonini zamonaviy va samarali usulda tashkil qilishga xizmat qilgan;

kraudfanding platformasi orqali xayriya qilish istagida bo'lgan shaxslar keyslarni ko'rib chiqib, to'liq yoki qisman homiylik qilishi mumkinligi, homiylik yordamlari to'g'ridan-to'g'ri natura shaklida muhtoj oilaning o'ziga yoki "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga maqsadli ravishda yo'naltirilishi mumkinligi, ko'rsatilgan yordamlar ijtimoiy xodim tomonidan kraudfanding platformasida aks ettirib borilishi va ochilgan keyslarni xayriya qiluvchilar geografik hududlar kesimida ko'rishi mumkinligiga oid takliflaridan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi "Temir daftar" orqali ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 313-son qaroriga 2-ilova sifatida tasdiqlangan Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalarni "Temir daftar"ga kiritish, hisobini yuritish hamda undan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomning 13-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 7-dekabrda 12-15-87-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalarga homiylik yordamlarini ularning

roziligi bilan maqsadli yetkazib berish imkoniyatini yaratish, kraudfanding platformasidan foydalanib, yordam mablag'larini samarali jalb qilish va maqsadli taqsimlashni huquqiy tartibga solishga xizmat qilgan;

“Oroldagi bog‘im” loyihasi doirasini kengaytirish maqsadida kraudfanding platformasi orqali aholining loyihaga hissa qo‘shish imkoniyatini yaratish, har bir qo‘shilgan hissa uchun qatnashchilarga sertifikat yoki ko‘chatga ism berish kabi rag‘batlantiruvchi dasturlar joriy etish, kraudfanding uchun aholi e‘tiborini jalb qilish maqsadida keng ko‘lamli targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borish, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, kraudfanding orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish va bu orqali loyihaga katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qilish bilan bog‘liq takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-199-son Farmonining 8-ilovasi, 2024 — 2028-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini barqaror rivojlantirish, innovatsiyalar va yashil texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha milliy dasturining 7-pozitsiyasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devonining 2024-yil 4-noyabrdagi 16-16741/1-son dalolatnomasi). Ushbu takliflar “Oroldagi bog‘im” loyihasini kengaytirish uchun kraudfanding platformasi orqali aholiga hissa qo‘shish imkoniyatini yaratish, qatnashchilarni sertifikat va boshqa rag‘batlantiruvchi dasturlar bilan mukofotlash, targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish hamda loyihaga investitsiyalarni jalb qilish uchun huquqiy asoslarni belgilashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola (3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tuzilishi kirish, 9 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy

natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "***Kraudfanding tushunchasi va uning huquqiy tabiati***" deb nomlangan birinchi bobida kraudfanding tushunchasining umumiy huquqiy tavsifi, genezisi, kraudfanding faoliyatining turlari, huquqiy tartibga solish prinsiplari, an'anaviy moliyalashtirish usullari va kraudfanding o'rtasidagi farqli jihatlar, kraudfanding munosabatlarini huquqiy tartibga solish rejimlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi kraudfanding tushunchasini tahlil qilishda ko'plab iqtisodchi (S.S.Gulyamov, P.Belleflamme, A.Agrawal, G.Barello, Y.Gavrilin, A.Osharova, N.Rasulov) va huquqshunos (C.Kleiner, M.J.Braun, A.Schwartz, Sh.N.Ruzinazarov, A.Tojiboyev, A.Jumag'ulov, J.S.Muller, R.G.Marshall, N.V.Alekseyev, E.Arkipov, A.O.Klinov) olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan. Mazkur munozara yakunlariga ko'ra "kraudfanding" va "kraudfandingni fuqarolik-huquqiy tartibga solish" tushunchalariga quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

*"Kraudfanding – maxsus raqamli platforma orqali startup, innovatsion, tadbirkorlik, ijtimoiy va xayriya loyihalarini, shuningdek, madaniy va ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, shartnomaviy-huquqiy munosabatlar asosida amalga oshiriladigan va kutilayotgan natijalarni (mahsulot, xizmat yoki huquqlarni) ta'minlashni ko'zda tutadigan ommaviy moliyalashtirish usuli"*.

*"Kraudfandingni fuqarolik-huquqiy tartibga solish – kraudfanding jarayonini fuqarolik huquqi doirasida nazorat qilish va boshqarishga qaratilgan qoidalar, munosabatlar hamda mexanizmlar tizimi bo'lib, ushbu tartibga solish kraudfanding jarayonida ishtirok etuvchi tomonlarning (loyiha muallifi, investor va platforma operatori) huquq va majburiyatlarini belgilash, shartnoma munosabatlarini tartibga solish, mablag' yig'ish va ishlatish jarayonini nazorat qilish kabi asosiy huquqiy tamoyillarni o'z ichiga oladi"*.

Tadqiqotchi tomonidan kraudfanding faoliyati maqsadiga qarab bir nechta turlarga bo'linishi va ularning tavsifi bayon qilingan. Xususan, xayriyaga asoslangan kraudfanding (***crowddonating***), mukofotga asoslangan kraudfanding (***reward-based crowdfunding***), kreditga asoslangan kraudfanding (***crowdlending***) va aksiyalarga asoslangan kraudfanding (***equity-based crowdfunding; crowdinvesting***) ta'rifi va ularning ishlash tartibi – mexanizmlari bayon etilgan.

Shuningdek, dissertatsiyada kraudfandingning an'anaviy moliyalashtirish usullari, xususan, bank kreditlari, investitsiya fondlari, jamoat fondlari, metsenatlik va venchur kapitali kabilardan farqli jihatlari tahlil qilinib, o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqotchi kraudfanding quyidagi huquqiy belgilari bilan boshqa turdagi moliyalashtirish usullaridan farq qilishini asoslagan:

- moliyalashtirilayotgan loyihaning zarur garov ta'minoti yo'qligi yoki daromadni va'da qilmasligi;
- kichik investorlar yoki donorlardan mablag'larni jalb qilish imkoniyati mavjudligi;

- moliyaviy shaffoflik va ishtirokchilarni kuzatishni amalga oshirish imkoniyati mavjudligi;

- qisqa muddatli va maqsadli moliyalashtirishga yo'naltirilganligi;
- innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qilishi;
- huquqiy va moliyaviy tartibga solish darajasining pastligi.

Tadqiqotchi tomonidan kraudfandingni huquqiy tartibga solishda jahon tajribasi o'rganilib, tartibga solishning uch xil asosiy rejimlari, xususan, *sui generis*, *dixotomiya* va Yevropa harmonizatsiyalashgan rejim (*European Harmonization Regime*)lari hamda islom huquqida kraudfanding munosabatlari tahlil qilingan.

*Sui generis rejimi*, ya'ni "o'ziga xos" yoki "yagona" tartib, kraudfanding faoliyatini maxsus huquqiy asoslarda boshqarish uchun mo'ljallangan tizim hisoblanib, ushbu rejim kraudfandingning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, investorlar xavfsizligini ta'minlash va shaffoflikni oshirishni ko'zda tutadi. AQSh, Singapur va Rossiya davlatlarida maxsus qonunchilik mavjud bo'lgan hollarda chegaralar o'z shakllariga ko'ra farqlanadi hamda har bir milliy qonunchilikda qabul qilingan qarorga qarab belgilanadi. Bu chegaralar foiz ko'rinishida (masalan, daromadga nisbatan, loyiha summasiga nisbatan va hokazo) yoki nominal shaklda (ya'ni aniq belgilangan, miqdoriy summa) ifodalanishi mumkin.

*Dixotomiya rejimi* kraudfandingni tartibga solishda loyihalarning hajmi va murakkabligiga qarab ikki xil yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu tizim kichik loyihalar uchun talablarni yengillashtirish orqali ularning rivojlanishini rag'batlantiradi, katta loyihalar uchun esa qat'iy qoidalarni joriy etish orqali investorlar manfaatlarini himoya qiladi. Kichik loyihalar uchun soddalashtirilgan tartiblar, masalan, individual investitsiya va umumiy mablag' yig'ish uchun pastroq chegaralar belgilanishi, yangi biznes va loyihalarga moliyaviy resurslarga osonroq kirish imkonini beradi. Katta loyihalar esa moliyaviy oshkoralik, batafsil hisobotlar va qat'iy muvofiqlik talablarini o'z ichiga olib, yirik moliyaviy faoliyat xavfsizligini ta'minlaydi. Bu yondashuv tartibga solish yukini muvozanatlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tadqiqotchi tomonidan Kanada va Buyuk Britaniya kabi davlatlar ushbu rejimdan samarali foydalanayotgani tahlil qilingan.

*Yevropa harmonizatsiyalangan rejimi* Yevropa Ittifoqi (YI) bo'ylab kraudfandingni boshqarish uchun yagona va standartlashtirilgan huquqiy tizimni joriy etishga qaratilgan. Ushbu tizim kraudfanding qonunchiligidagi farqlarni kamaytirib, platformalar va investorlar uchun bir xil sharoitlar yaratadi hamda transchegaraviy moliyalashtirishni osonlashtiradi.

2020-yil 7-oktabrda qabul qilingan va 2021-yil 10-noyabr sanasidan kuchga kirgan Yevropa kraudfanding xizmati provayderlari (**ECSP**) nizomi butun Yevropa Ittifoqida uyg'unlashtirilgan normativ-huquqiy baza yaratdi. Bu rejim startaplar va kichik hamda o'rta biznes subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va investorlar himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Nizomga ko'ra kraudfanding provayderlari milliy vakolatli organlardan ruxsat olishlari talab qilinadi va ushbu avtorizatsiya butun Yevropa Ittifoqida tan olinadi. Natijada, provayderlar o'z xizmatlarini YI hududida erkin taklif qila olishi, bu esa kraudfanding xizmatlarini yanada integratsiyalashgan va samarali tizimga aylantirishi yoritib berilgan.

Dissertant tomonidan Yevropa Ittifoqi va boshqa xorijiy davlatlar tajribasidagi kraudfandingni tartibga soluvchi rejimlarga asoslanib, milliy innovatsion strategiya doirasida kraudfanding munosabatlarining murakkab jarayon va turli institutlardan iboratligini inobatga olgan holda kraudfanding, kraudfanding platformasi operatori, tashabbuskor loyihasi va uni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini muvozanatli tizim bo'lgan *dixotomiya rejimi* asosida tartibga solish maqsadga muvofiqligi tahlil qilindi.

Bundan tashqari tadqiqotchi tomonidan shariatga asoslangan kraudfanding modeli (*sharia-compliant crowdfunding model*) asosida kraudfandingning islomiy moliyaviy tamoyillarga mosligi va uning shartnomaviy asoslari o'rganilgan. Ushbu model turli loyihalarni onlayn hamkorlikda moliyalashtirishni o'z ichiga olgan kraudfandingning kichik turi hisoblanadi. Uning maqsadi "pastdan yuqoriga" mikromoliyalash tamoyilini o'zida mujassamlashtirishga, an'anaviy moliyaviy to'siqlarni bartaraf etgan holda innovatsiyalar va ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

Foiz (*ribo*)ning islomda taqiqlanganligi sababli an'anaviy kreditga asoslangan kraudfanding islomiy qoidalar bilan mos kelmaydi. Shunga qaramay boshqa kraudfanding turlari, ayniqsa, P2P kraudfanding, islom moliyasi tamoyillariga moslash mumkin.

Tadqiqot islom moliyasida mavjud shartnomalar orasida *Mudoraba* shartnomasi P2P kraudfanding uchun eng mos kelishini ko'rsatdi. Ushbu shartnomada bir tomon (*rab-ul-maal*) sarmoya kiritadi, ikkinchi tomon (*mudarib*) esa sarmoyani tijorat korxonasiiga yo'naltirib, foyda olish uchun o'z bilim va tajribasini ishga soladi. Olingan foyda tomonlar o'rtasida oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, zarar esa faqat sarmoyaga yoki bajarilgan mehnatga ta'sir qiladi. Bu shartnoma foizsiz bo'lib, islom tamoyillariga to'liq mos keladi.

Shuningdek, tadqiqotda islomiy P2P kraudfanding an'anaviy kraudfandingdan farqlanishi ta'kidlangan. Islomiy P2P kraudfandingda investitsiyalar daromadlari foizlarga asoslanmasdan, foydani taqsimlash shartnomalari orqali amalga oshirilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "*Kraudfanding platformasi operatorlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlari*" deb nomlanib, ushbu bobda kraudfanding faoliyati subyektlarining (tashabbuskor, investor va kraudfanding platformasi operatori) huquqiy maqomi, kraudfandingda o'zini o'zi tartibga solish (*self-regulation*) tizimi, kraudfanding platformasi operatori faoliyatini tashkil etish va litsenziyalash hamda kraudfanding faoliyatida moliyaviy xavfsizlik hamda investorlar huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan kraudfanding munosabatlarining ishtirokchilari va ularning huquqiy maqomi o'rganildi. Kraudfandingning tijorat va notijorat shakllari mavjud bo'lib, ularning huquqiy tartibga solinishi sezilarli darajada farqlanadi. Bu sohadagi tadqiqotlar ushbu munosabatlarning shakli, ishtirokchilar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniqlashda muhim asos ekanligini ko'rsatadi.

Kraudfanding jarayonida uchta asosiy subyekt mavjudligi dissertatsiya ishida ochib berildi:

1. *Loyiha yaratuvchisi (tashabbuskor)* – kraudfanding orqali moliyalashtirishni izlayotgan shaxs yoki tashkilot. U platforma operatori va investorlar yoki donorlar bilan shartnomaviy munosabatlarni o‘rnatadi hamda loyihaga oid ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish majburiyatiga ega;

2. *Platforma operatori* – raqamli platformalarda loyiha yaratuvchilari va investorlar o‘rtasidagi vositachi sifatida xizmat ko‘rsatadigan yuridik shaxs. Tadqiqotda platforma operatorining texnik va moliyaviy xizmatlarni tashkil etish, monitoring qilish hamda qonuniy talablarga rioya qilishdagi huquqiy maqomi va javobgarligini o‘rganib chiqildi;

3. *Donorlar (investorlar)* – loyihani moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi shaxslar. Investorlar shartnoma asosida mablag‘lar kiritib, qaytariladigan yoki xayriya shaklida moliyalashtirishni amalga oshiradilar.

Kraudfanding faoliyati subyektlari o‘rtasida amalga oshiriladigan munosabatlar ixtiyoriylik, maqsadga muvofiqlik, yaxlitlik va samaradorlik kabi tamoyillar asosida olib borilishi tahlil qilindi.

Tadqiqotchi tomonidan kraudfanding sohasida o‘zini o‘zi tartibga solish tizimining mohiyati, shakllanishi va samaradorligi o‘rganildi. O‘zini o‘zi tartibga solish bozor ishtirokchilarining xulq-atvor qoidalarini mustaqil ishlab chiqishi va ularga amal qilishi asosida yuzaga keladi. Bu tizim davlat tomonidan boshqariladigan rasmiy institutlardan farqli ravishda norasmiy, xususiy va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi hamda bozor muvaffaqiyatsizliklariga javob beruvchi muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda davlat va o‘zini o‘zi tartibga solish institutlari o‘rtasidagi to‘rt xil munosabat turi mavjudligi ko‘rib chiqildi:

1. *Majburiy o‘zini o‘zi tartibga solish*: hukumat tartibga soluvchi vakolatlarni o‘zini o‘zi tartibga soluvchi guruhlariga topshiradi;

2. *Tasdiqlangan tartibga solish*: hukumat o‘zini o‘zi tartibga soluvchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarni tasdiqlaydi;

3. *Majburlangan o‘zini o‘zi tartibga solish*: hukumat tomonidan sanoat ehtiyojlariga mos bo‘lmagan tartibga solish xavfi oshgani sababli, o‘zini o‘zi tartibga soluvchi guruhlar standartlar ishlab chiqadi;

4. *Ixtiyoriy o‘zini o‘zi tartibga solish*: hukumatning hech qanday aralashuvisiz, biror bir sanoat yoki kasb sohasining a‘zolari bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlari uchun umumiy standartlarni ishlab chiqadi.

Shuningdek, tadqiqotda kraudfanding platformalari va ishtirokchilari uchun ishlab chiqilgan tartibga solish qoidalarining (*Code of Conduct*) ahamiyati o‘rganildi. Ushbu qoidalar, bir tomondan, platformalarning faoliyatini aniq belgilaydi, ikkinchi tomondan, investorlar huquqlarini himoya qilish va bozorning barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Bu qoidalar platformalar tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilib, davlat tartibga solishini to‘ldiruvchi yoki undan oldin ishlaydigan mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Shu sababli O‘zbekistonda kraudfanding munosabatlarida *kvazi o‘zini o‘zi tartibga solish* tizimini qo‘llash maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi hamda sohaning davlat tomonidan qat‘iy nazorat qilinishi uning rivojiga to‘siq bo‘lishi mumkinligini inobatga olgan holda O‘zbekistonda *Kraudfanding assotsiatsiyasini*

tashkil etish hamda *tartibga solish qoidalarini* (*Code of Conduct*) ishlab chiqish zarurati mavjudligi asoslantirildi.

Tadqiqotchi tomonidan kraudfanding platformasi operatorlarining tashkiliy-huquqiy shakllari, ularning o'ziga xos jihatlari va qonunchilik asosida tartibga solinishi batafsil o'rganildi. Xorij tajribasi va O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari asosida platforma operatorlari uchun mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) yoki aksiyadorlik jamiyati (AJ) shakllarini tanlash masalasi tahlil qilindi. Tadqiqotchining fikricha, O'zbekistonda kraudfanding platformasi operatorlarini tashkil etishda MChJ shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qarorida belgilangan Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasini tashkil etish amaliyoti misol bo'la oladi. Direksiya mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan bo'lib, bu shakl startap-loyihalar va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun qulay bo'lganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyada kraudfanding platformasi operatorlari soniga nisbatan turli yondashuvlar batafsil o'rganildi. Ushbu yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, kraudfanding sohasidagi amaliy oqibatlar tahlil qilindi. Sohada yagona kraudfanding platformasi orqali faoliyatni tashkil etish tartibga solish va nazoratni soddalashtirishi, firibgarlik va huquqbuzarliklarning oldini olish imkoniyatini oshirishi xususida xulosalarga kelindi. Ma'lumotlarning yagona markazlashtirilishi investorlar va loyiha egalariga bir xil va ishonchli axborot taqdim etishi, ammo monopoliya xavfi, raqobat va innovatsiyalarni rivojlantirishning pasayishi, foydalanuvchilarning tanlov imkoniyatining cheklanishi, texnik muammolar yoki xizmatdagi uzilishlarda butun tizimning ishlamay qolishi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkinligi asoslantirildi.

Boshqa tomondan tadqiqot davomida platforma operatorlari soniga cheklov o'rnatilmasligi raqobat muhiti yaratishi, xizmatlar sifati va innovatsiyalarni oshirishi, foydalanuvchilarga ko'proq tanlov imkoniyatini berishi ma'lum bo'ldi. O'z navbatida, bu davlat va nazorat organlari uchun barcha platformalarni tartibga solish va nazorat qilishni qiyinlashtirishi, ma'lumotlarning tarqoqligi foydalanuvchilar uchun noqulaylik tug'dirishi mumkinligi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan kraudfanding platformasi operatorlari faoliyatini litsenziyalash va monitoring qilish masalasi xorijiy davlatlar tajribasi asosida o'rganilib, ushbu jarayonning investorlarga kafolat berish, foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish va platformalarning qonuniy faoliyatini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida kraudfanding platformasi operatorlari uchun maxsus litsenziya talabini kiritish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonuni asosida platformalar qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatning kichik turi sifatida investitsiya vositachisi litsenziyasini olishlari mumkin.

Tadqiqotda moliyaviy xavfsizlik bo'yicha investorlarning platformaga va loyihalarga ishonchiga qanday ta'sir qilishi, platformalar tomonidan kiberxavfsizlik, shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni himoya qilish choralari,

jumladan, kuchli shifrlash texnologiyalari, ikki faktorli autentifikatsiya va xavfsizlik monitoringi, kiberxavfsizlikni mustahkamlashda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati, jumladan, sun'iy intellekt yordamida firibgarlikni aniqlash va blokcheyn orqali shaffoflikni ta'minlash imkoniyatlari kabi asosiy yo'nalishlar o'rganildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "***Kraudfanding platformalari bilan bog'liq ayrim fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish***" deb nomlanib, unda kraudfanding faoliyatida taraflar o'rtasida tuziladigan shartnomalar, kraudfanding faoliyatida tashabbuskor, donor (investor) va platforma operatorlarining javobgarligi, kraudfanding faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llashni huquqiy tartibga solishning istiqbollari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning mazkur bobida kraudfanding munosabatlarida tashabbuskor, donor va platforma operatori o'rtasida tuzilishi mumkin bo'lgan shartnoma konstruksiyalari tahlil qilingan. Mazkur munosabatlarda tashabbuskor va donor (investor) o'rtasida tuziladigan shartnomalar bir necha turdagi shartnomalar xususiyatlarini qamrab olganligi sababli xizmat ko'rsatishga doir shartnomalar, mol-mulkka bo'lgan huquqlarni o'tkazishga oid shartnomalar, innovatsion shartnomalar va investitsiya shartnomalari kabi turli fuqarolik-huquqiy shartnoma konstruksiyalari qo'llanilishi mumkinligi asoslab berilgan.

Bundan tashqari kraudfanding munosabatlarida taraflarning o'z majburiyatlarini bajarmaganligi oqibatida yuzaga keladigan javobgarlik masalalari ham tahlil qilingan. Xususan, tashabbuskor tomonidan loyiha uchun yig'ilgan mablag'larning to'g'ri sarflanishi ta'minlanmasligi, moliyalashtiruvchilarga va platforma operatoriga noto'g'ri axborot taqdim etilishi; platforma operatori tomonidan shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi ta'minlanmasligi hamda tashabbuskor loyiha bo'yicha taqdim etgan ma'lumotlarning tekshirilmasligi kabi huquqbuzarliklar oqibatida kelib chiqadigan javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur bobda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarini kuchaytirish, ***smart-kontrakt***larning kraudfanding jarayonlarida shartnomalarni avtomatlashtirish uchun qo'llanilishi, kraudfandingda moliyalashtirish jarayonining xavfsizligi va samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyasini qo'llash hamda kriptovaluta kraudfandingi jarayoni kabilar haqida so'z yuritilgan.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro standartlarga rioya etgan holda amalga oshirilishi platformalarning global miqyosda ishlashini osonlashtirish va foydalanuvchilarga ishonch berish uchun xizmat qilishi asoslantirilgan. Bundan tashqari smart-shartnomalarning kraudfanding munosabatlarida qo'llanilishi tadbirkorlik va investitsiya sohalarida yangi imkoniyatlar yaratishi, shaffoflik va ishonchni kuchaytirishi tahlil qilingan.

